

## BADIIY ADABIYOTDA GUL TIMSOLI VA UNING G‘OYAVIY IFODASI.

Akbaraliyeva Feruza G‘ayratjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy adabiyotda gul timsolining semantik va ramziy xususiyatlari qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sharq mumtoz adabiyoti hamda G‘arb adabiyoti misolida gul obrazining g‘oyaviy yuklamasi, estetik vazifasi va falsafiy mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida gul timsolining muhabbat, go‘zallik, o‘tkinchilik, ilohiylik va ijtimoiy mazmunlarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida ushbu timsolning o‘ziga xos talqini va uning badiiy tafakkur rivojidagi ahamiyati tahlil etiladi

**Kalit so‘zlar:** gul timsoli, ramz, badiiy obraz, qiyosiy adabiyotshunoslik, estetik kategoriya, sharq adabiyoti, g‘arb adabiyoti, muhabbat, o‘tkinchilik, tasavvuf

**Annotation:** This article analyzes the semantic and symbolic features of the flower motif in fiction from the perspective of comparative literary studies. Using examples from Eastern classical literature and Western literature, it reveals the ideological load, aesthetic function, and philosophical essence of the flower image. The study highlights the role of the flower motif in expressing meanings such as love, beauty, transience, divinity, and social significance. It also examines the unique interpretation of this symbol in Uzbek literature and its importance in the development of artistic thought.

**Keywords:** flower motif, symbol, artistic image, comparative literature, aesthetic category, Eastern literature, Western literature, love, transience, Sufism

**Аннотация:** В данной статье анализируются семантические и символические особенности образа цветка в художественной литературе с точки зрения сравнительного литературоведения. На примере восточной классической и западной литературы раскрываются идейная нагрузка, эстетическая функция и философская

сущность образа цветка. В ходе исследования освещается роль данного символа в выражении таких значений, как любовь, красота, преходящность, божественность и социальный смысл. Также рассматривается своеобразная интерпретация этого образа в узбекской литературе и его значение в развитии художественного мышления.

**Ключевые слова:** образ цветка, символ, художественный образ, сравнительное литературоведение, эстетическая категория, восточная литература, западная литература, любовь, преходящность, суфизм

**Kirish :** Badiiy adabiyot inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari va jamiyatdagi murakkab jarayonlarni obrazlar orqali ifodalovchi san’at turidir. Unda turli timsollar, ramzlar va metaforalar muhim o‘rin egallaydi. Shunday timsollardan biri — gul obrazidir. Gul qadimdan go‘zallik, noziklik, muhabbat, hayotiylik va o‘tkinchilik ramzi sifatida inson tafakkurida mustahkam o‘rin egallagan. Shu bois u jahon va o‘zbek adabiyotida keng qo‘llanilgan badiiy vositalardan biridir. Folklorda u oddiy hayotiy tasvir bo‘lsa, mumtoz adabiyotda ramziy va falsafiy mazmun kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi — folklor gul obrazining eng qadimiy shakllaridan biridir. Xalq qo‘shiqlari, ertaklar, maqollar va topishmoqlarda gul obrazi juda keng qo‘llaniladi. U asosan go‘zallik, bahor, poklik va ishq-muhabbat ramzi sifatida talqin qilinadi. Xalq og‘zaki ijodida gul faqat o‘simlik emas, balki chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lgan badiiy vositadir. Xalq qo‘shiqlari va dostonlarda gul ko‘pincha sevikli yor (ma’shuqa) obraziga qiyoslanadi. Gul timsolining nazariy asoslari: Adabiyotshunoslikda timsol (obraz) — bu muayyan g‘oyani estetik shaklda ifodalovchi vositadir. Gul timsoli esa ko‘p ma’noziligi bilan ajralib turadi. U quyidagi asosiy semantik qatlamlarga ega:

Estetik qatlam – go‘zallik va nafasat ifodasi

Emotsional qatlam – muhabbat va hissiyotlar ramzi

Falsafiy qatlam – hayotning o‘tkinchiligi

Diniy-mistik qatlam – ilohiy haqiqat timsoli

Shu jihatdan gul timsoli polisemantik (ko‘p ma‘noli) obraz sifatida qaraladi. Sharq adabiyotida gul timsoli asosan ishqiy va tasavvufiy kontekstda qo‘llaniladi. Gul va bulbul motivi. Sharq she‘riyatida keng tarqalgan gul-bulbul timsolida:

**Gul** — ma‘shuqa yoki ilohiy go‘zallik

**Bulbul** — oshiq qalb timsoli.

Bu yerda gul ko‘pincha beparvo, yetib bo‘lmas go‘zallik sifatida tasvirlanadi. Bu esa ishqning iztirobli mohiyatini ochib beradi.

**Boychechak:** Muqaddas xabarchi va hayot ramzi. Boychechak o‘zbek folklorida qishning tugashi va tabiatning uyg‘onishini bildiruvchi ilk darakchi hisoblanadi. "Boy" so‘zi qadimiy turkiy tilda "muqaddas", "chechak" esa "gul" degan ma‘nolarni anglatadi, ya‘ni bu — "muqaddas gul"dir." Boychechak" nomli maxsus mavsumiy marosim qo‘shig‘i mavjud bo‘lib, unda bolalar uyma-uy yurib bahor kelganini xabarlashadi. Qo‘shiqdagi "Qattiq yerdan qatrab chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak" misralari uning matonati va hayotga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Ilk boychechakni ko‘rgan kishi uni ko‘ziga surtishi (ko‘z yoshlanmasligi uchun) va shunday kunlarga yetkazganiga shukrona keltirishi qadimiy odatlardandir. Tasavvuf adabiyotida gul: ilohiy jamol (go‘zallik) haqiqat nuri, ruhiy kamolot belgisi sifatida talqin qilinadi. Gulning ochilishi — insonning ma‘rifatga yetishi, so‘lishi esa dunyoning foniyligini anglatadi.

Romantizm davrida Romantik adabiyotda gul: tabiat go‘zalligi inson hissiyotlarining ifodasi ideal go‘zallik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Realizm va modernizm da keyingi davrlarda gul timsoli: hayotning o‘tkinchiligi insoniy qadriyatlarining yemirilishi ijtimoiy muammolar ramzi sifatida ishlatiladi. Masalan, so‘layotgan gul obrazi orqali yozuvchilar jamiyatdagi tanazzulni ifodalaydilar. O‘zbek adabiyotida gul timsolining o‘ziga xosligi : O‘zbek adabiyotida gul timsoli Sharq an‘analari asosida shakllangan bo‘lsa-da, milliy ruh bilan boyitilgan.

Mumtoz adabiyotda gul obrazi. Mumtoz adabiyotda gul obrazi shunchaki o‘simlik emas, balki chuqur falsafiy, tasavvufiy va estetik mazmun yuklangan murakkab ramz hisoblanadi. Sharq she‘riyatida u asosan go‘zallik, ilohiy jamol va ma‘shuqa timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

- Ma‘shuqa jamoli: Gul —sevikli yorning yuzi, latofati va go‘zalligi ramzi.

Masalan, g‘uncha ma‘shuqaning kulgichi yoki og‘ziga, tikan (xor) esa uning jafosi yoki raqibga qiyoslanadi.

### **Shoirilar ijodida gul timsollari.**

- Alisher Navoiy: Gul obrazini ham zohiriy (tashqi go‘zallik), ham botiniy (ilohiy mazmun) ma‘nolarda yuksak mahorat bilan qo‘llagan. Navoiy asarlarida lola, nargis, rayhon kabi gullarning har biri alohida ramziy vazifani bajaradi (masalan, nargis —ko‘z, lola —ishq o‘tida yongan yurak).

- Bobur: Uning lirikasida gul obrazi hayotiy zavq, tabiat go‘zalligi va lirik qahramonning ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashgan.

- Atoyi va Lutfiy: Bu shoirlar g‘azallarida gul ko‘proq dunyoviy go‘zallik va yor tavsifi uchun xizmat qilgan.

"Gul yuzung dahr ichra bir bog‘i eramdir, ey ko‘ngil,

Bulbuling ul bog‘ aro gulyuzli sham‘i anjuman."

Ma'nosi: Sening gul yuzing bu dunyoda xuddi Eram bog'idek go'zaldir, mening ko'nglim esa u bog'da sening jamoling atrofida aylanuvchi parvonadir. Lola—Ishq dog'i ramzi. Mumtoz she'riyatda lola o'rtasida qora dog'i bo'lgani uchun "bag'ri dog' oshiq" (ishq o'tida yuragi kuygan) ramzi hisoblanadi:"

Lola ruxsoringda ko'rdim xol-u g'amzang dog'ini,

Ul sababdin loladek bag'rim mening dog' o'lmish."

Bu yerda yorning yuzidagi xoli (dog'i) oshiqning bag'rida ishq olovidan hosil bo'lgan dog'ga o'xshatilyapti. Zamonaviy adabiyotda. Zamonaviy adabiyotda esa gul timsoli: insoniy orzular ayol obrazining nafisligi jamiyatdagi ziddiyatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ba'zan sindirilgan yoki so'lg'in gul obrazi orqali ijtimoiy muammolar va ruhiy inqiroz ifodalanadi. Gul timsolining g'oyaviy funksiyasi. Gul timsoli badiiy asarda quyidagi g'oyaviy vazifalarni bajaradi: inson hayotining o'tkinchiligini ko'rsatadi, muhabbatning nozik va murakkab tabiatini ochib beradi. Go'zallik va fojia o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi ijtimoiy muammolarni ramziy shaklda yoritadi. Shu sababli gul obrazini faqat estetik unsur sifatida emas, balki chuqur g'oyaviy vosita sifatida baholash zarur.

**Xulosa:** Gul timsoli badiiy adabiyotda universal va ko'p qirrali obraz sifatida muhim o'rin tutadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, uning turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi aniqlanadi. Sharq adabiyotida u ko'proq tasavvufiy va ishqiy mazmun kasb etsa, G'arb adabiyotida estetik va ijtimoiy yo'nalishda rivojlangan. O'zbek adabiyotida esa bu ikki yo'nalish uyg'unlashib, milliy badiiy tafakkurga xos noyob talqin yuzaga kelgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Karimov, N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Mirzayev, T. Folklor va xalq og'zaki ijodi. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Jumaboyev, M. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston.